

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2023 Vol. 1

**www.navoiy-uni.uz
www.goldenscripts.navoiy-uni.uz**

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

BOSH MUHARRIR

O'RINBOSARI

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulkumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabel Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MATNSHUNOSLIK. MANBASHUNOSLIK

Aftondil Erkinov

Navoiyning Metropoliten muzeyi devoni qo'lyozmasi va uning tarkibi masalasi (905/1499-1500-yil, xattot - Sultonali Mashhadiy)

4

Kemal Yavuz Ataman

Babürşah ve Küreselleşen Hindistan

21

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ilyos Ismoilov

Iskandar mavzusining ilk diniy-tarixiy manbalari

35

Ülkər Baxşıyeva

Nizami Gəncəvinin "İskəndərnamə" poemasının bədii-estetik xüsusiyyətləri

53

Ozoda Tojiboyeva

"Tarje'bandi Xomisa" – Alisher Navoiyga izdoshlik mahsuli

66

LINGVISTIKA

Samixon Ashirboyev

Alisher Navoiy nasriy asarlarida qo'shma gap transformatsiyasidagi sodda gaplar sintaksisi

79

Farhad Rahimi

Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Değerlendirilmesi

92

CONTENTS

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

TEXTOLOGY. SOURCE STUDIES

Aftondil Erkinov

Navoi's manuscript of the Metropolitan Museum of Art and the question of its composition (905/1499-1500 years, calligrapher - Sultanali Mashhadi)

4

Kemal Yavuz Ataman

Baburshah and Globalized India

21

LITERATURE

Ilyos Ismoilov

The first religious-historical sources of Iskander theme

35

Ulkør Bakhshieva

Artistic and aesthetic features of Nizami Ganjavi's poem "Iskandername"

53

Ozoda Tojiboeva

"Tarjebandi Khomisa" as a product of following Alisher Navoi

66

LINGUISTICS

Samikhon Ashirboev

Syntax of simple sentences in compound sentence transformation in Alisher Navoi's prose works

79

Farhad Rahimi

The Evaluation of Nezrali's Chagatai Turkish Dictionary

92

“Tarje’bandi Xomisa” – Alisher Navoiyga izdoshlik mahsuli

Ozoda Tojiboyeva¹

Abstrakt

Alisher Navoiy ijodiy merosiga izdoshlik o’zbek adabiyotining keyingi davrlarida keng davom ettirilgan an’analardan. Jumladan, Xorazm adabiy muhitida shoirning lirk Janrlardagi barcha she’laridan ta’sirlanish kuzatiladi. “Xamsa” dostonlarining ijodiy qayta ishlanishi va targ’ib etilishida ham ushbu hududning o’rni muhim. Xorazm shoirlari Navoiydan ta’sirlanib g’azallar bitdilar, adabiy ta’sir natijasida tatabbu’, taxmis, tazmin yo’lidan bordilar.

Iste’dodli shoir Avaz O’tarning “Tarje’bandi Xomisa” asari Navoiy “Xamsa”si dostonlari ta’sirida yozilgan. Mazkur asarda muallif “Xamsa” dostonlari mazmuniga tayangan bo’lsa-da, tarje’bandning g’oyasi hamda shakliji jihatlari Alisher Navoiyning tarje’bandlariga hamohang. Shuning uchun mazkur maqolada “Tarje’bandi Xomisa” Alisher Navoiy “Xamsa”sining dostonlari va tarje’bandlariga qiyoslab o’rganildi.

Kalit so’zlar: *an’ana va izdoshlik, doston, lirk Janr, tarje’band, falsafiy mushohada.*

Kirish

Sharq adabiyoti tarixida buyuk shoirlar ijodidan ta’sirlanish, an’anaga izdoshlik natijasida turli shakl va mazmundagi asarlar vujudga kelgan. Mazkur asarlar adabiy janrlarning shaklan va mazmunan boyishiga olib kelgan. Ijodiy ta’sir barcha davrlarda an’analar zamirida yangiliklar sari yetaklagani, shoirlarning badiiy mahorati, iqtidorini namoyish etish yo’lida bir maydon vazifasini o’tagani yaxshi ma’lum. Sharq adabiyotining boy an’analaridan oziqlangan Alisher Navoiy ijodiy merosi o’zining shakli va mavzu ko’lamiga ko’ra ana shunday ta’sir doirasi chegara bilmas ilhom manbai bo’lib kelgan. Alisher Navoiydan keyingi davr adabiyotida Qo’qon adabiy muhiti, Xorazm adabiy muhiti degan katta bir ijod

¹Tojiboyeva Ozoda Tohirova – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

Iqtibos uchun: Tojiboyeva, O.T. 2023. “Tarje’bandi Xomisa” – Alisher Navoiyga izdoshlik mahsuli”. *Oltin bitiglar* 1: 66–78.

maydoni Navoiyga izdoshlik masalasida vorislikni mahorat bilan o'zlashtirdi. Qo'qon adabiy muhitida lirik asarlardan iborat devon tuzish, Navoiy asarlarini ko'p nusxada ko'chirish ishlari samarali olib borilgan bo'lsa, Xorazm adabiy muhitida Navoiy an'analarini davom ettirish boshqa hududlarga nisbatan ko'proq – bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'lishi kuzatiladi:

1. Shoir lirik merosidan ta'sirlanib g'azallar bitish, taxmislар bog'lash.

2. "Xamsa" dostonlarini nasriy yo'lda bayon qilish, dostonlar syujeti asosida mustaqil asarlar yaratish.

Alisher Navoiy ijodiy merosini targ'ib qilishda esa shoir asarlarini ko'chirtirish, xos-u avom o'rtasida navoiyxonlik, xamsaxonlik kechalarining o'tkazilishi kabi keng ko'lamdagи faoliyat ko'rinishida davom etdi. Xorazm adabiy muhitining yetuk vakillari Munis Xorazmiy, Ogahiy, Tabibiy kabi shoirlar qatorida Avaz O'tarning faoliyatida ham Alisher Navoiy ijodiga ergashish kuzatiladi. Avaz O'tar iste'dodli shoir sifatida Alisher Navoiyning ko'plab g'azallariga tatabbu'lар bitgan. Ular sirasidan, Alisher Navoiyning *Ko'nglum o'rtansun agar g'ayringg'a parvo aylasa,/ Har ko'ngul hamkim sening vasling tamanno aylasa; Yo'qturur olamda ahli ishqdek bechora el, / Hajr zulmi birla xonumonidin ovora el matla'lari bilan boshlanuvchi g'azallari* Avaz O'tar ijodida o'zlashtirilib, *Ko'nglum agar g'ayr sori mayl-u taqozo aylasa, / Kuysun g'am o'tig'a o'zin g'ayrig'a shaydo aylasa; Yo'q jahon mulkida bizdek ojizu bechora xalq, / Zulm tig'i birla bo'lg'on bag'ri yuz ming pora xalq tarzida shoirning ko'ngil kechinmalarini ifoda etib keladi.* Avaz O'tar Navoiyning o'nta g'azaliga taxmis ham bog'lagan, "Faloniy" turkumidagi to'rt, olti, sakkiz va undan ortiq misralik mustaqil mundarijaga ega asarlar yozish an'anasini davom ettirgan. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilganidek, "bu she'riy formaning namunalari dastlab Navoiy ijodida uchraydi. Bunday asarlarda obyekt qilib olingan shaxsning kimligi pardalab o'tiladi. "Faloniy" turkumi Avaz merosida ham bor"ligi shoirning hatto kichik janrlarda ham Navoiyga ergashganini ko'rsatadi [Ўзбек адабиёти тарихи 1980, 358]. Avaz O'tar "Falon" obrazi vositasida muayyan xulq-atvorga ega obrazlar tizimini shakllantirib, o'z davri muammolarini yashirin, ammo muayyan adresatlarga yo'naltirilgan tarzda ochib bergen. Umuman, Avaz O'tar Alisher Navoiy ijodidagi axloqiy, falsafiy mazmun va g'oyani chuqur o'rganib, tadrijiy davom ettirar ekan, ularni o'z davriga moslab, davr ruhiyatini singdirib borgani ko'zga tashlanadi.

Tarje'band janri va "Tarje'bandi Xomisa"

Avaz O'tar lirikada Navoiydan ijodiy ta'sirlanishi barobarida "Xamsa" dostonlariga ergashib tarje'band ham bitgan. U har besh dostonga tarje'band bog'lab, "Tarje'bandi Xomisa" deb nomlaydi. Mazkur asar Avaz O'targa xos ijod qirralarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. E'tiborlisi, Navoiy g'azallariga taxmis bog'lash, "Xamsa" dostonlariga ergashib masnaviyda yoki nasrda nazira dostonlar bitish odatdag'i adabiy hodisa hisoblangan. Biroq yirik dostonlarga tarje'band bog'lash hodisasi Avaz O'tardan boshqa ijodkorda uchramaydi.

Avaz O'tar ijodiy merosi bo'yicha maxsus tadqiqot olib borgan M. Yuldasheva "Avazning epik an'anaga ijodiy yondashuvi va novatorligini ko'rsatuvchi bu tarje'bandlar maxsus turkum bo'lib, Navoiyga izdoshlik masalasini o'rganishda alohida o'rincutadi", deb ta'kidlaydi [Юлдашева 2006, 79].

"Tarje'bandi Xomisa" "Xamsa" dostonlari tartibi va mazmunidan kelib chiquvchi besh qismidan tarkib topgan. Har bir dostonga alohida tarje'bandlar bitilgan. Jumladan, "Hayrat ul-abror"ga bag'ishlangan 1-qism har bir bandi 8 baytdan tashkil topgan 7 band; "Farhod va Shirin"ga atalgan 2-qism 8 baytdan tashkil topgan 7 band; "Layli va Majnun"ga bog'langan 3-qism har bandi 8 baytdan tashkil topgan 6 band; "Sab'ai sayyor" mazmunidagi 4-qism har bandi 7 baytdan tashkil topgan 6 band; "Saddi Iskandariy"ga bag'ishlangan 5-qism har bandi 7 baytdan tashkil topgan 5 banddan iborat. Tarje'band janri talabiga ko'ra, har bir band o'zaro takrorlanib keluvchi yakuniy baytdan iborat, ya'ni har besh qism o'ziga xos bo'lgan takroriy ichki tarje' baytlariga ega. Nashriy nusxalardagi asar matni yuqorida sanab o'tilgan hajmni tashkil etadi. Tadqiqotchi M. Yuldasheva asarni batafsil o'rganish uchun dastlab qo'lyozmalardagi matnni to'liq tiklash lozimligini ta'kidlaydi [Юлдашева 2006, 79]. Avaz O'tar asarlarining mukammal nashrini yaratish ishlari kelgusida matnshunoslik borasidagi tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari keyingi asrlarda masnaviyda, xalq dostoni yoki qissa janrida nasr va nazm shaklida ijodiy qayta ishlangan, kitobxonlar uchun soddalashtirilgan holatda nasriy bayon qilingan. Shu silsilada yirik epik voqealarni o'z ichiga olgan "Xamsa"ga tarje'band bog'lashni kutilmag'an adabiy hodisa deyish mumkin. Tarje'band janriga "Xamsa" mazmunini singdirish, sig'dirish anchayin murakkab vazifa bo'lgani bois "Xamsa" dostonlarining qaysi jihatlari dostonga nisbatan katta farqqa ega

bo'lgan, kichik hajmli tarje'bandda aks etgan, degan savol tug'iladi. Epik asarga soflirik janrda javob bitish – tarje'band bog'lash shoirdan katta mahoratni talab etadi.

Avaz O'tar garchi "Xamsa" dostonlaridan ta'sirlangan, biroq syujetni aynan olmagan. Dostonlar mazmuniga janr talabidan yondashib, epik asar zamirida yotgan g'oyaviy maqsad, ibratlari xulosani lirik kechinma sifatida ifodalagan. Har besh qismni ijod etishda doston mohiyatini asos qilib olib, umumlashma mazmun-dagi xitob, murojaat, da'vat, ibratli xulosa mazmunidagi fikrlarini bayon qilib borgan.

Adabiyotshunos olim Y. Is'hoqov bu janrga shunday ta'rif beradi: "Tarji'band (ar: bandning qaytishi – takrorlanishi) – tarkib va hajm jihatidan o'ziga xos bo'lgan lirik janr. Tarji'band har bir bandi butun boshli g'azalga teng (7–12 va h.) va g'azal kabi qofiyalangan ko'plab bandlardan tarkib topadi. Bandlarning har biri mustaqil g'azalni eslatadi. Har bir band oxirida takrorlanib keladigan yagona bayt ularni mazmunan va usluban bog'lab turadi" [Исҳоқов 2014, 217].

Tarje'band janriga mukammal ta'rif bergan Shayx Ahmad Taroziy "Funun ul-balag'a" asarida uning qofiyalanishiga ko'ra 5 xil farqli turi borligini ko'rsatadi:

1. Har bandning qofiyasi alohida bo'lib, tarje' baytlari bir xil takrorlanib keladigan tarje'band.
2. Barcha bandlar bir xil qofiyalanib, takrorlanib kelishi lozim bo'lgan tarje' baytlari esa turlicha bo'lgan tarje'band.
3. Bandlari bilan birga tarje' baytlari ham bir xil qofiyada keluvchi, tarje' baytlari qofiyadosh bo'lsa ham so'zlari aynan takrorlanmaydigan tarje'band.
4. Bandlari har biri alohida mustaqil tarzda qofiyalanadi-gan, faqat tarje' baytlari turlicha bo'lib, qofiyadosh bo'lib keladigan tarje'bandlar. Bunda tarje' baytning birinchi misrasi qofiyalanmaydi. Taroziy o'zaro qofiyadosh bo'lib kelgan bunday tarje' baytlar bir joyga yig'ilsa, bitta bandni tashkil qilishini aytadi.
5. Bandlar qofiyasi turlicha bo'lib, tarje' baytlar ham takror bo'lmasdan, alohida qofiyalanib keluvchi tarje'bandlar. Tarje'bandning bu turida marsiya va madhlar yaratilgan [Тарозий 1996, 47–53].

Tarje'band shaklan g'azallar yig'indisini eslatishi yuqorida aytib o'tildi, shunga ko'ra qofiyalanib keluvchi qatorlar deyilganda, hammasi emas, balki g'azal tartibida *a-a*, *b-a*, *v-a* tarzida ikkinchi misraning qofiyalanishi nazarda tutilmoqda.

Shayx Ahmad Taroziy misol sifatida keltirgan forsiy va turkiy tillardagi tarje'bandlarga e'tibor berilsa, shoirlarning shaklan turfalikka intilganliklari kuzatiladi. Shoirlar o'zlarining so'z zargari sifatidagi mahoratlarini ko'rsatishga intilganlar, tarje'band janriga xos turfalik ularning ohang va mazmun ustida ishlashlari uchun shaklan yaxshi imkoniyat bergen.

Aksariyat tarje'bandlar mazmuni shoirlarning olam haqidagi tasavvurlari, umr yo'lidagi katta hayotiy tajribalaridan iborat falsafiy umumlashmalar, ibratli xulosalar bilan boyitliganini ko'rish mumkin. Demak, hajman yirikroq bo'lgan tarje'band janri g'azalga nisbatan lirik tuyg'ularni, teran mushohadalarni kengroq yoritish imkoniyatini bera oladi. Bandlar oxirida takrorlanib keluvchi tarje' baytlar esa chiqarilgan hikmatli xulosani ta'kidlash va kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

O'zbek adabiyotida kam sonli shoirlar mazkur janrda ijod qilganlar. Tarje'band yozish an'anasi XVIII–XIX asrlar shoirlari ijodida ko'proq kuzatiladi. Avaz O'tarning asari Shayx Ahmad Taroziy misol qilib keltirgan tarje'bandning birinchi turida ijod etilgan, ya'ni unda bir xil qofiyalangan tarje' baytlar xuddi g'azal shaklidadek: a-a, b-a, v-a, g-a, d-a, y-a, y-a, **j-j** singari takrorlanib keladi. Har bir dostoniga bog'langan tarje'band qismlari alohida qofiyalanish tizimiga ega. Tugallanayotgan qism yakunida shoir taxallusini qo'llab, o'z-o'ziga murojaat bilan fikrni yakunlaydi.

Shakl va mazmun uyg'unligi, badiiy mahorat masalasi

"Tarje'bandi Xomisa" Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari singari voqeaband asar emas. U, asosan, lirik qahramon kechinmalari, tuyg'ulari izhoridan tashkil topgan. Lirik qahramon – shoirning o'zi – Avaz O'tardir. "Hayrat ul-abror"ga mazmunan bog'lanishi lozim bo'lgan birinchi bandda ma'shuqaning go'zalligi madh etiladi. Tarje'banddagi ushbu birinchi qism *Voqif o'l, ey oshiqi bexonumon; Ey o'zini ishq aro zor aylagan; Ey alami ishq ila qalbi g'amin; Istar esang vasl aro masrurlig'*; *Ey tilagan yor ila suhbat mudom; Har kim agar ishq aro maftundur; Ey bori ushshoq aro zor-u haqir misralari bilan boshlanib, oshiq tilidan bevafo yor dardida o'zni ko'p azobga solmaslik, ma'shuqaning bevafoligi va bunday nayranglari bisyorligi haqidagi fikrlar izhori bilan davom etadi:*

*Voqif o'l, ey oshiqi bexonumon,
Behuda ko'p chekmagil oh-u fig'on.
Yor visolini tilab borho,
Qilma o'zing firoqida notavon.*

*Lablari bo'sini qilib orzu,
G'ussa chekib aylama bag'ringni qon.
Har nechakim garchi vafo aylasang,
Lek jafolar sanga aylar ayon.
Botinda dushmani jonning saning,
Borchasi zohirda bo'lub mehribon.
Chashmini xunxor ekanin bilmading,
Fahm qilib la'lini mo'jizbayon.
O'zni g'ami ishqig'a aylab asir,
Shomu sahar bo'lmag'il ozurdajon.
Sho'xi jahonkim, bor erur bevafo
Zolimi bedodgaru purjafo* [Аваз Ўтап 1984, 289].

Lirik qahramon tilidan aytilgan ma'shuqaning oshiqni sarson-ovora aylaguvchi qilg'iliklarini kengroq ma'noda olamning buqalamunligi, dunyoning jabru jafolari ma'nosida ham tushunish mumkin. Shoir keyingi bandlardagi ta'riflarda husni ta'lil va o'x-shatishlar yordamida yor tasvirini aniq ifodalab boradi va asarda ma'shuqa tavsifi ham birlamchi ahamiyat kasb etishi oydinlashadi:

*Ruhi mujassamu ko'rub suratin
Hayrat elin tishladi naqqoshi Chin?
Garchi ekan shaklu shamoyilda hur,
Lek bo'lub odati xashm ila kin.
Sho'xi jahonki, bor erur bevafo,
Zolimi, bedodgar-u purjafo* [Аваз Ўтап 1984, 289].

Oshiqni hijron azobida qiyagan ma'shuqaga aytar dil so'zları, dard-kechinmalari avtointerpretasion talqinlarga ham yo'l ochadi. Shoir o'tkinchi dunyoning foniyligi, bevafoligini uqtirib *Umr sanga o'tkusidur, bilmagung / Ushbu tamannolar ila subhi shom.* /*Kelsa yigit joningga hayfing agar,/ Tutma alar odini, ey nek nom* deya xulosa chiqaradi. O'tayotgan umrga achinish, yoshlikning, yigitlikning qadriga yetish, undan unumli foydalanish zarurligi uqtiriladi. O'ziga shaydo etgan bu go'zal dunyoning o'tkinchiliginı ta'kidlash uchun qo'llangan *Sho'xi jahonki, bor erur bevafo,/ Zolimi, bedodgar-u purjafo*" tarzidagi tarje' baytlar fikrning ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Mantiqan, "Hayrat ul-abror" dostoni keyingi dostonlarga debocha, kirish vazifasini bajarsa, yetti banddan iborat mazkur qism tarje'bandning kompozitsion qurilishida ham keyingi qismlar uchun kirish vazifasini bajargan. O'tayotgan umrni g'animat bilish, dunyo ho-yu havaslariga aldanmaslik, husnning o'tkinchi ekanligi haqidagi

fikrlar kitobxonni navbatdagi qismlarga ruhan tayyorlaydi.

“Hayrat ul-abror”ga bag’ishlangan birinchi qismni ko’zdan kechirish jarayonida matnni aynan Navoiyning tarje’bandlariga ham qiyoslab o’tish maqsadga muvofiqdir.

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoni” kulliyotidagi devonlarning har biriga bittadan tarje’band kiritilgan. Avaz O’tar tarje’bandining birinchi qismi “Navodir ush-shabob” devonidan o’rin olgan *Jahon qasrig’adur su uzra bunyod, / Chu yo’q bunyodi andin bo’lmaq’il shod* deb boshlanuvchi tarje’bandga mazmuni va g’oyasi bilan ancha yaqin. Tarje’band bandlarida takrorlanib keluvchi quyidagi yakuniy baytlarda ham hamohanglik ko’zga tashlanadi:

*Baqosizdur jahon ra’nosi, valloh,
Jahon ra’nosi, yo’qkim mosivalloh.*

Alisher Navoiyning mazkur tarje’bandi sakkiz qismdan iborat va har bir qism o’n bir baytdan tashkil topgan. Asarda dunyoning bevafoligi, o’tkinchiligi, jahon go’zalliklariga maftun bo’lib, umrni zoye qilmaslik zarurligi uqtiriladi. Qizig’i, hamma qismlar bir xil “jahon” so’zi bilan boshlanib, baytlarda ushbu mazmun mantiqan davom ettiriladi: *Jahon qasrig’adur su uzra bunyod; Jahon sho’xidin olmish Haq vafoni; Jahonkim zohir aylar lola-vu bog’; Jahon lolasidin bo’lg’il mujarrad; Jahon ra’nosi birla qilma payvand; Jahon jomi to’ladur zahri qotil; Jahon ayyorasidin tut kanora; Jahon sho’xin aruse qilg’il ixsos.* Jahonning baqosiz ekanligini eslatish bilan boshlangan mazkur bandlarning har birida fikrlar tadrijiy davom etib, yuqoridagi *Baqosizdur jahon ra’nosi, valloh, / Jahon ra’nosi, yo’qkim mosivalloh* misralari bilan yakun topadi. Badiiy adabiyotda insонning dunyo noz-u ne’matlari, o’tkinchi hoyuhavaslariga mahliyo bo’lib, uning domiga kirib borishi kelinchakning o’ziga oroyish berib, aqlni o’g’irlashiga o’xshatiladi. Alisher Navoiy ta’riflagan tushunchalar zamirida kishining nafs quliga aylanish jarayoni, o’z vaqtida undan tiyilish va ogoh bo’lish zarurligi g’oyalari yotadi.

Mazkur tarje’bandni batafsil sharhlab, tahlil qilgan akademik A. Qayumov *Jahon qasrig’adur su uzra bunyod* misrasi bilan boshlanuvchi birinchi qismdagi fikrlar O’rxun-Enasoy bitiklaridagi “Suvga suyanma” maqoliga o’xshashini aytib, asar haqida quyidagi fikrlarini bildiradi: “Bu tarji’bandning mazmuni ancha qayg’uli. Ammo bu qayg’u to’la misralarni Navoiyning dunyo ishlaridan chekinish, umidsizlikka berilishga chaqirig’i deb hisoblash bo’lmaydi. Chunki Navoiy bu she’rda dunyodagi turmushda baqo (doimiylik) yo’q ekanligini aytib, unga hirs qo’ymaslikka da’vat etmoqda. U hayot

haqiqatini ochiq ko'rsatmoqda. Inson ana shuni hisobga olgan holda o'z hayotini uyushtirmog'i lozim, deb saboq bermoqda" [Қаюмов 2014, 16–17]. Alisher Navoiyning mazkur tarje'bandida mohiyatan oshiq-ma'shuq o'rtasidagi sevgi emas, balki kengroq ma'noda dunyoga ruju qo'yib, oqibatda aldanib qolmaslik, ogoh bo'lism, nafsni tiyish, qalbni tozalash kabi fikrlar ilgari suriladi. Bu o'rinda oshiq – lirik qahramon, ma'shuq esa – dunyo. Albatta, oshiqning bunday ma'shuqaga muhabbat qo'yib, atrofida giryon bo'lishi, aslan intilishi lozim bo'lgan ishqidan uzoqlashib borishiga sabab bo'ladi va oxir-oqibatda tanazzulga yetaklaydi. Shu ma'noda Avaz O'tarning *Sho'xi jahonki, bor erur bevafo, / Zolimi, bedodgaru purjafo* tarje' bayti Alisher Navoiyning chuqur xulosavly xotimani o'zida ifoda etgan *Baqosizdur jahon ra'nosi, valloh,/ Jahon ra'nosi, yo'qkim mosivalloh* tarje' baytiga mazmunan yaqin. Albatta, Alisher Navoiyning tarje' bayti ko'p jihatidan ustunlik qiladi. Avaz O'tar tarje' bayti ham o'ziga xos mahorat hosilasi. Buyuk adib fikrlarini she'r bandlarida yoyib, dalillab, yakunda xulosani ham yasab, "valloh", "mosivalloh" so'zleri orqali shaklan va mazmunan tugal qofiya hosil qilgan. Shayx Ahmad Taroziy misol tariqasida keltirgan namunalardan ham bilish mumkinki, tarje'bandlar ishqiy mavzudan tashqari, shoirlarning inson umri va mazmuni, olam buqalamunliklari haqidagi falsafiy mushohadalarini ifoda etish uchun qulay janr hisoblangan.

Avaz O'tar asaridagi mazmunan yaqinlikni qiyoslash uchun har ikki asardan parchalar keltirib o'tamiz:

Alisher Navoiy:

*Yiroq bo'l, ey ko'ngul, bu dilrabodin,
Ki sensen shisha, oning ko'ngli xora* [Навоий 2011, 673].

Avaz O'tar:

*Kimsa jahon sho'xidin o'lsa yiroq
Tolei farxunda, humoyundur.*

Alisher Navoiy:

*Bukim yo'qtur vafosi, bas emastur,
Ki dard-u mehnatidur jovidoniy* [Навоий 2011, 668].

Avaz O'tar:

*Har nechakim garchi vafo aylasang,
Lek jafolar sanga aylar ayon.*

Ko'rindiki, Avaz O'tar torroq ma'noda yorning vafosiz ekanligini ta'riflash orqali biz ko'ngil qo'ygan dunyo omonat,

vaqtinchalik ekaniga urg'u beradi. Alisher Navoiy esa to'g'ridan-to'g'ri jahonning boqiy emasligi, unga ko'ngil qo'yib "barcha sarmoyangni barbod" berib, pushaymon bo'lislumumkinligini har bandda turli ifoda yo'sinida, aytilgan misollar vositasida asoslaydi. Avaz O'tar garchi "Xamsa" dostonlari vazni, umumiyo mazmun yo'naliishini asos qilib olgan bo'lsa-da, o'z tarje'bandini shakllantirishda ustoz shoir tarje'bandlaridan ham ijodiy foydalangan. Mavzu va g'oya, fikrni badiiy ifoda etish usullarida aynan Navoiy tarje'bandiga tayanib, "Hayrat ul-abror"ga xos falsafiy, axloqiy mazmunga yo'g'rilgan yangi tarje'bandni bitgan. Va shu bilan asarning pandnomaga xos ruhini saqlab qolgan.

Tarje'bandning "Farhod va Shirin" dostoniga bog'langan ikkinchi qismidagi yetti band to'liq ma'shuqa ta'rifiga bag'ishlangan. O'n olti misradan iborat har bir band *Ayo, mahbublig' mulkini xoni; Ayo, nomehribon hur-u parizod; Ayo, dildori mahbubi barno; Ayo oromijon sho'xiyagona; Ayo, nomehribon sho'xi sitamgar; Ayo g'uncha dahon-u gul'uzorim; Ayo dilbar, qading sarvi ravondur tarzida yor ta'rifi bilan boshlanadi*. Misralarda yorning husn-u jamoli oshiqning yurak-bag'rini tig'lagani, visol dardida holi xarob bo'lgani aytilib, bandlar yorning rahm qilishi so'rالgan bir xil tarje' baytlar bilan yakunlanadi:

*Ayo, nomehribon huri parizod
Ko'zi xunxora-u qattol-u jallod.
Demay jallod, el ko'nglin qushini
Qilurg'a sayd ikki turfa sayyod.
Sochi mushkin sunbul, ko'yi gulshan,
Ruxi gul, la'li g'uncha, qaddi shamshod.
Agar tarsobacha ermas esang san –
Bo'lurmu aylamaklik muncha bedod?
Ne yonglig' sho'x kofirbacha erding,
Qilursan ahli ding'a zulm bunyod?!
Magar bo'lmish sanga bir umr ichra –
Jafo-u javrning oyini mo'tod?
Agarchi sen erursan misli Shirin,
Vale men xayli oshiq ichra Farhod.
Tarahhum ayla ahvolimg'a izhor
Ki, hijron ranjig'a bo'ldum giriftor* [Abaz Ўтар 1984, 292].

Avaz O'tar mazkur qism uchun epik syujet emas, balki "Farhod va Shirin"dagi ishq-muhabbat mavzusini asos qilib oladi, lirik kechinmalar izhorini, ma'shuqaning ta'rif-tavsifi va oshiq holatini ifoda etishga intiladi. Bemehr parizodning ko'zlari jonni oluvchi qotil,

yo'q ular jallod emas, oshiqlar ko'ngil qushini ov qilishga chiqqan ikki ovchilardir. Sochi sunbul, qaddi shamshod yor, agar tarso sanam bo'lmasang, din ahliga munalik zulm yetkazasan, sen misoli Shirin, men oshiqlar ichra Farhod xaylidanman, ahvolimni ko'rib rahm ayla, hijron dardiga giriftor bo'ldim, deya ta'kidlaydi. Mazkur qism boshdan-oxirigacha ma'shuqani ta'riflashda qo'l keladigan husni ta'lil, tashbeh, mubolag'a san'atlari asosiga qurilgan.

Go'zal yor ta'rifidan so'ng "Layli va Majnun" dostoniga bog'langan uchinchi qismni tarje'banddag'i avj nuqta deb aytish mumkin. Sababi – unda oshiq ma'shuqa hajrida o'rtanadi, nola chekadi, dard-u nolalarini to'kishni boshlaydi. Sho'ir bu o'rinda o'zini Majnunning ahvoliga yaqin darajada tutadi. *Bo'ldum g'ami ishqning asiri, / Men telbau benavo ul hangom; Bulbul kibi etsam ohu afg'on,/ Qurbanbi bo'lur edim bu soat kabi misralar lirik qahramonning ruhiyatida kechayotgan dardni chuqurroq ifodalagan.* Quyidagi misralar esa mazkur qismning umumiyligi ruhiyatini o'zida aks ettiradi:

*Boshimg'a kelur tuman ming ofat,
Chekmakli ishim mudom kulfat,
Topmay bori kom ila murodim,
Ko'nglumda erur g'am ila hasrat.
Gah yod qilib ruxini mehrin
Olam ko'zuma hamesha zulmat.
Ishq aro povbast bo'ldum,
Ne sudki, aylasam nadomat?!
Tushgusi boshimg'a furqatida
Har lahzada sho'rishi qiyomat.
Vaslidin esa murodi firdavs,
Do'zaxdin o'lur firoq alomat.
To bo'lg'oli ishq aro giriftor
Yuzlangusi ta'n ila malomat.
Siyminbari dahrkim, qish-u yoz
Varzish qiladur tag'oful-u noz* [Avaz Ўтар 1984, 295].

Tarje'bandning mazkur uchinchi qismi yuqoridagi birinchi va ikkinchi qismlardagi kabi bir xil boshlanma baytlar bilan boshlanmaydi, ularning faqat tarje' baytlari bir xil. Sho'ir ishqning oshiq qalbiga soladigan iztiroblarini o'tli misralarda ifoda etib, vasl uning uchun jannat, firoq – do'zax azobi ekanligini eslatadi.

"Sab'ai sayyor"ga atalgan qismida ham sho'ir ishq-muhabbat mavzusini davom ettiradi, Bahrom Diloromning vaslini orziqib kutganidek, yorga yetishish yo'llarini izlaydi. Bu o'rinda Avaz O'tar tarje'bandidagi izdoshlik har besh doston vaznining saqlanishi

va dostonlar umumiy g'oyasiga yaqinlikda ko'rindi.

“Saddi Iskandariy” tartibidagi beshinchiligi qismi Iskandar hayotining intihosida anglab yetgan haqiqatga hamohang. Olamning baqosizligi, dunyoni titratgan Iskandardek olam shohlari ham hech narsasiz ketgani va ularning hayot yo'lidan xulosa chiqarish zarurligi uqtiriladi:

*Darig'o, baqosizdur ushbu jahon
 Ki, endi vafo bo'yidin yo'q nishon.
 Kishi bormu topg'on murodotini,
 Ming armon bila bo'lmayin bag'ri qon?
 Qilib kom uchun ro'z-u shab jiddu jahd,
 Hama komjo'lar ketibdur qayon?
 Xususanki, Iskandari nomdor,
 Bor erdi jahon shohi sohibqiron,
 Murodicha olamda sokin bo'lub,
 Aysh etdimu ul xisravi xurdardon?
 Ayo, kom ila jam'iyat istagan,
 Qilay pand eshitgil kelib bu zamон.
 Kimikim esa oqil-u hushyor,
 Tajarrud tariqin qilur ixtiyor [Avaz йтап 1984, 299].*

Dunyoning baqosizligi eslatilgan tarje'bandning birinchi qismiga nisbatan mazkur qismda pand-nasihat, ibrat olish, maslahat mazmuni ustunlik qiladi. Iskandarning hayot yo'li misol tariqasida keltirilib, dunyoning o'tkinchi ekanligi eslatilishi qatorida yuqorida tahvilga tortilgan Alisher Navoiyning *Baqosizdur jahon ra'nosi, valloh, / Jahon ra'nosi, yo'qkim mosivalloh* tarje' baytlari bilan yakunlanuvchi tarje'bandi mazmuniga ham juda yaqin. Avaz O'tarning mahorati – u Navoiyning “Xamsa” dostonlari umumiy ruhiyatidan ta'sirlanib, o'z kechinmalarini o'sha fonda tasvirlashga muvaffaq bo'lган. Donishmand shoir tarje'bandi mazmuniga tayanib, o'zining olam va odam haqidagi falsafiy mushoha va mulohazalarini bayon etadi.

Xulosa

Umuman olganda, “Tarje'bandi Xomisa” asarini mazmun va kompozitsion qurilishiga ko'ra tekshirish Avaz O'tarning iste'dod qirralarini ochishda muhim o'rinni tutadi. Mazkur janr shoir anglab yetgan olamni badiiy yo'sinda ifoda etish uchun shakliy va mazmuniy imkoniyat bergen. Asarda qo'llanilgan badiiy san'atlar uyg'unligidagi misralar jozibasi kishiga estetik zavq bag'ishlaydi, ilgari surilgan g'oyalilar ma'rifiy ta'sir ko'rsatadi. Avaz O'tar ijodidagi

"Soqiynoma", g'azallar, musammatlar, ruboiy va qit'alarni shakl, g'oya va mazmun jihatidan tekshirish Alisher Navoiy adabiy merosining xorazmlik shoirlar tomonidan davom ettirilishini o'rganishga hissa bo'lib qo'shiladi. Tahlillar har ikki shoir ijodidagi ma'no noziklarini ochishi bilan birga Avaz O'tar mahoratini ham namoyon etadi. An'ana va izdoshlik masalasi o'zbek shoirlarining Alisher Navoiy ijodini mehr va qunt bilan o'zlashtirganliklarini ko'rsatadi.

Adabiyyotlar

- Алишер Навоий. 1960. *Хамса*. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. Тошкент: Фан.
- Алишер Навоий. 2011. *Наводируш-шабоб. Хазойин ул-маоний*. Иккинчи девон. Тошкент: Tamaddun.
- Аваз. 1984. *Сайланма*. Тошкент: Faafur Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.
- Исҳоқов, Ё. 2014. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: O'zbekiston.
- Очилов, Э. 2019. "Аваз ижодида Навоий анъаналари". *Ўзбек тили ва адабиёти* 4: 7-9.
- Расурова, Ф. 1998. *Аваз йтар ўғлининг илмий-маърифий қарашлари*. Педагогика фанлари номз. диссертацияси. Тошкент.
- Юлдашева, М. 2006. *Аваз шеъриятида анъана ва маҳорат*. Филол. фан. номз. диссертацияси. Тошкент.
- Ўзбек адабиёти тарихи. 1980. 5 томлик. Бешинчи том. Тошкент: Фан.
- Шайх Аҳмад Ибн Худойдод Тарозий. 1996. *Фунуну-л-балога*. (Балогат илмлари). Масъул муҳаррир Б.Хасанов. Тошкент: Хазина.
- Ҳайитметов, А. 1997. *Аваз лирикасида жанр ранг-баранглиги*. Адабий меросимиз уфқлари. Тошкент: Ўқитувчи.
- Қаюмов, А. 2014. "Таржиъбандлар". *Дилқуши тақрорлар ва руҳафзо ашъорлар*. 4-22. Тошкент: Sharq.

"Tarjebandi Khomisa" as a product of following Alisher Navoi

Ozoda Tojiboeva¹

Abstract

Following the creative heritage of Alisher Navai is one of the traditions that was widely extended in later periods of Uzbek literature.

¹Ozoda T. Tojiboeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: ozoda@navoiy-uni.uz

ORCID-ID: 0000-0003-4742-8357

For citation: Tojiboeva, O.T. 2023. "Tarjebandi Khomisa" as a product of following Alisher Navoi". *Golden scripts* 1: 66–78.

In particular, the literary environment in Khorezm is influenced by all the poet's poems in lyrical genres. The role of this region is also important in the creative processing and promotion of the epic "Khamsa". The poets of Khorezm wrote ghazels under the influence of Alisher Navai, and because of the literary influence they went along the path of Tatabbu', Tahmis and Tazmin.

The work of the talented poet Awaz Otar "Tarjebandi Khomisa" was written under the influence of the epic of Alisher Navai's "Khamsa". Although in this work the author relied on the content of the epic "Khamsa", the idea and formal aspects of the novel correspond to the novel by Alisher Navai. Therefore, in this article "Tarjebandi khomisa" compared with the epics and Tarjebandi of Alisher Navai "Khamsa".

Key words: tradition and followership, epic, lyrical genre, experience, philosophical observation.

References

- Alisher Navoiy. 1960. *Xamsa*. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiev. Toshkent: Fan.
- Alisher Navoiy. 2011. *Navodir ush-shabob. Xazoyin ul-maoniy*. Ikkinchidevon. Toshkent: Tamaddun.
- Avaz. 1984. *Saylanma*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Is'hoqov, Y. 2014. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: O'zbekiston.
- Ochilov, E. 2019. "Avaz ijodida Navoiy an'analari". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 7-9.
- Rasulova, F. 1998. *Avaz O'tar o'g'lining ilmiy-ma'rifiy qarashlari*. Pedagogika fanlari nomz. dissertatsiyasi. Toshkent.
- Yuldasheva, M. 2006. *Avaz she'riyatida an'ana va mahorat*. Filol. fan. nomz. dissertatsiyasi. Toshkent.
- O'zbek adabiyoti tarixi*. 1980. 5 tomlik. Beshinchi tom. Toshkent: Fan.
- Shayx Ahmad Ibn Xudoydod Taroziy. 1996. *Fununu-l-balogs'a*. (Balog'at ilmlari). Mas'ul muharrir B. Hasanov. Toshkent: Xazina.
- Hayitmetov, A. 1997. *Avaz lirikasida janr rang-barangligi*. Adabiy merosimiz ufqlari. Toshkent: O'qituvchi.
- Qayumov, A. 2014. "Tarji'bandlar". *Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar*. 4-22. Toshkent: Sharq.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo'yicha MS Word menejerini qo'llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

100–150 so'zdan iborat o'zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'limgan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o'ng chetida muallifning ism-familyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi

qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasи

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transleteratsiyasini berish ham mymkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mymkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:
[Xondamir, Makorim, 17^a]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiyatipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiyatipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalilanigan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalaniqan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsитilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytiganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosiga tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.org/> havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy.

e-mail: oltinbitiglar@gmail.com

Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2023-yilda ruxsat etildi

Qog‘oz bichimi 70x100 1/16/.

nashriyot bosma tabog‘i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo‘lgan ro‘yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.

Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.

Bosmaxona manzili: 100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,
+99894 659 94 62